

**Urinov Jamol Chorshanbiyevich, Sayitmurodova Nigina Burxon qizi,  
Nosirov Jahongir Komil o'g'li**  
“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

---

## **QISHLOQ XO‘JALIGIGA MO‘LJALLANGAN YERLARDA JORIY MONITORINGNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligida yer monitoringini yuritish maqsadi vazifalari va uni o‘tkazish tartibi keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yer monitoringi, nazorat tizimi, kuzatuv, respublika monitoringi, mintaqaviy monitoring, mahalliy monitoring, yer monitoringining kichik tizimlari.

**Аннотация:** В данной статье представлены цели и задачи мониторинга земель в нашей республике и порядок его проведения.

**Ключевые слова:** Мониторинг земель, система контроля, наблюдение, республиканский мониторинг, региональный мониторинг, локальный мониторинг, малые системы мониторинга земель.

**Abstract:** This article presents the objectives and tasks of land monitoring in our republic and the procedure for conducting it.

**Key words:** Land monitoring, control system, surveillance, republic monitoring, regional monitoring, local monitoring, small systems of land monitoring.

---

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanish holati yuzasidan joriy monitoring (keyingi o‘rinlarda — joriy monitoring) quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

foydalanishda bo‘lgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan maqsadiga ko‘ra samarali va oqilona foydalanishni ta‘minlash;

irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarining buzilishi oqibatida holati yomonlashgan va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan sug‘oriladigan yerlarning holatini yaxshilash choralarini ko‘rish;

foydalanishdan chiqib ketgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni foydalanishga kiritish choralarini belgilash;

fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi tashkilotlariga berilmagan, bo‘sh turgan va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni ochiq elektron tanlovga qo‘yish bo‘yicha takliflar ishlab chiqib, mahalliy hokimiyat organiga taqdim etish choralarini ko‘rish.

Joriy monitoring bo‘yicha dala kuzatuv ishlari davrida yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarning yer uchastkalari chegaralarida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar kartografik materiallarda qayd etiladi.

Joriy monitoring natijasi bo‘yicha yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarning mavjud yer maydonlaridagi yer turlari o‘zgarishi bo‘yicha ma‘lumotlar bazasi yangilanadi, shuningdek, tegishli masshtabdagi kartografik materiallar tayyorlanadi.

Joriy monitoring asosida bajarilgan ishlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar tegishli topshiriqlarga asosan “O‘zdaverloyiha” instituti va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Joriy monitoring asosida yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar kesimida yer turi va maydonlari bo‘yicha ma‘lumotlar, tegishli masshtabdagi kartografik materiallar hamda qishloq xo‘jaligi ekinlarining konturlar kesimida ekilishi bo‘yicha o‘tkazilgan monitoring natijalari tuman hokimligiga taqdim etiladi.

Joriy monitoring jarayonida yer to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish holatlari aniqlangan taqdirda, ma‘lumotlar “O‘zdaverloyiha” instituti va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan bir ish kunida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni muhofaza qilish bo‘yicha davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat inspektorlariga taqdim etiladi.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlari bo‘yicha monitoring yakuniga ko‘ra yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarning yer turi, konturi, chegarasi haqidagi barcha ma‘lumotlar o‘n ish kuni ichida “O‘zdaverloyiha” institutining yer axborot tizimi portalida shakllantiriladi hamda ma‘lumotlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining onlayn geoportaliga kiritiladi.

Qishloq xo‘jaligi ekinlarining ekilishi va ularda erga ishlov berish bilan bog‘liq agrotexnik tadbirlarning o‘tkazilishi yuzasidan tezkor monitoring (keyingi o‘rinlarda — tezkor monitoring) quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda ekinlarni joylashtirish ko‘rsatkichlariga muvofiq ularning konturlar bo‘yicha to‘liq va sifatli ekilishini ta‘minlash;

ekin maydonlarida erga ishlov berish bilan bog‘liq agrotexnik tadbirlarning o‘z muddatlarida bajarilishini tashkil etish.

Tezkor monitoring tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi tomonidan ekilgan qishloq xo‘jaligi ekinlarini joyga chiqqan holda kunlik monitoring orqali amalga oshiriladi.

Tezkor monitoring jarayonida quyidagi ma‘lumotlar shakllantiriladi:

yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarning foydalanishida bo‘lgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda joriy yil uchun qishloq xo‘jaligi ekinlarini konturlar kesimida joylashtirish ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar;

Davlat kadastrlari palatasining tuman (shahar) filiallaridan yer maydonlarining konturlar bo‘yicha hisoblash qaydnomasi va fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi tashkilotlariga berilmagan, bo‘sh turgan va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar.

Qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish mavsumiga ko‘ra to‘liq ekib tugallangandan so‘ng tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi tomonidan tezkor monitoring natijasida yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar (yoki ularning vakili) ishtirokida monitoring dalolatnomasi tuziladi.

Kunlik monitoring natijalari bo'yicha ma'lumotlar Vazirlik, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar qishloq xo'jaligi boshqarmalari va "O'zdaverloyiha" institutining hududiy bo'linmalariga taqdim etiladi.

Tezkor monitoring tuman qishloq xo'jaligi bo'limlari tomonidan Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat ta'minoti jamg'armasi mablag'lari hisobidan, manfaatdor tashkilotlar va qishloq xo'jaligi tashkilotlarining mablag'lari hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligi ekinlarining to'liq ekilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar ekinlarni joylashtirish ko'rsatkichlariga taqqoslanadi, shuningdek, hududning tegishli masshtabdagi qishloq xo'jaligi xaritasiga yakuniy monitoring ma'lumotlari shakllantiriladi.

Tezkor monitoring jarayonida qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish ko'rsatkichlariga nisbatan to'liq ekmaslik, erga ishlov berish bilan bog'liq agrotexnik tadbirlarning o'z muddatlarida bajarilishini ta'minlamaslik yoki kechiktirish, shuningdek, yer to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish holatlari aniqlangan taqdirda, tegishli ma'lumotlar bir ish kuni ichida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni muhofaza qilish bo'yicha davlat nazoratini amalga oshiruvchi inspektorlarga taqdim etiladi.

Tezkor monitoring natijasi bo'yicha bir nusxada yig'majild shakllantirilib, tuman qishloq xo'jaligi bo'limida saqlanadi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda ekinlarning to'liq ekilishi yuzasidan tezkor monitoring ma'lumotlari o'n ish kuni ichida "O'zdaverloyiha" instituti va uning hududiy bo'linmalari tomonidan yer axborot tizimi portalida shakllantiriladi.

Monitoring natijasi bo'yicha olingan barcha ma'lumotlar mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni muhofaza qilish bo'yicha davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat inspektorlariga hamda tegishli tashkilotlarga taqdim etilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar va ekin maydonlarida monitoring ishlarini amalga oshirish davomida olingan ma'lumotlar qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning holati va ulardan foydalanish to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlashda qo'llaniladi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Yer manitoringi o'quv qo'llanma R.A.Turayev 2022 yil.
2. Xudoyberdiyev, F. Sh., Bobojonov, S. O', & Muxamadov, Q. M. O'. (2022). Markaziy osiyo mamlakatlarida chiqindi obyektlarini boshqarishning bugungi holati. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5), 967-976.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida.